

---

## OTMLARGA O'QISHGA KIRISHDA KIMLAR IMTIYOZGA EGA?



### **OTMLarga o'qishga kirishda kimlar imtiyozga ega?**

Quyidagi abituriyentlar oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda imtiyozga ega:

Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining farzandlari;

Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlar va musobaqalar g'oliblari bo'lgan bitiruvchilar;

“Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti laureatlari;

“Mard o'g'lon” davlat mukofoti sohiblari;

“Yilning eng yaxshi tarbiyachisi” respublika tanlovi g'oliblari;

Tibbiyot muassasalari hamshiralarning “Hamshira” respublika tanlovi g'oliblari;

“Nihol” mukofoti sovrindorlari;

O'zbekiston yoshlar ittifoqi respublika komissiyasi bergan tavsiyanoma sovrindorlari (pedagogika yo'nalishlariga);

Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tab, harbiy tavsiyanomaga ega bo'lganlar;

Chet tilini bilish darajasi to'g'risida davlat namunasidagi B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatga ega abituriyentlar;

Harbiy qism qo'mondonligi va Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tavsiyanomasiga ega bo'lganlar;

Ishoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatning butun o'qish davrini a'lo baholarga o'qigan bitiruvchilari;

Mutaxassisligi bo'yicha 5 yil ish stajiga ega xotin-qizlar;

Ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlar;

Ichki ishlar organlarida 3 yildan ortiq ish stajiga ega profilaktika (katta) inspektorlari;

Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida 5 yil ish stajiga ega fuqarolar;

Toshkent davlat yuridik universiteti qoshidagi akademik litseyning bitiruvchilari.

### **So'x tumani hokimligi Axborot xizmati**

#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-11-27 15:08:11